

O'ZBEK ADABIYOTI HİKOYALARIDA OT OBRAZİNİNG TUTGAN O'RNI(SAİD AHMAD "OT BİLAN SUHBAT" HİKOYASI MİSOLİDA).

*To'xtayev Soxibjon Tojibek o'g'li
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU
2-kurs magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiyotshunoslikda obraz masalasi hamda zamonaviy o'zbek adabiyoti hikoyalarida ot obrazi haqida so'z boradi. Ot obrazining obrazlar tizimidagi o'rni, badiiy psixologizmi haqida fikr yuritiladi hamda hikoya janrida uning ahamiyadi haqida atroflicha fikr yurtilgan.

Kalit so'zlar. Ot, obraz, hikoya, janr, Said Ahmad, adabiyotshunoslik...

Annotation. This article deals with the issue of image in literary studies and the image of the horse in the stories of modern Uzbek literature. The role of the image of the horse in the system of images, its artistic psychology is discussed, and its importance in the narrative genre is discussed in detail.

Adabiyotshunoslikda obraz masalasi, obraz tushunchasi juda muhim hisoblanadi. Adabiyotshunoslikka oid darslik va qo'llanmalarga nazar solsak, ««Obraz»» atamasi «raz» («chiziq») so'zidan olingan bo'lib, «raz» so'zidan «razit» («chizmoq», yo'nmoq, o'ymoq,) va undan «obrazit» («chizib, yo'nib, o'yib, shakl yasamoq») so'zi yasalgan. «Obrazit»dan «Obraz» («umuman olingan tasvir») vujudga kelgan.⁸ Yuqorida keltirilgan ma'lumotdan ko'rinish turibdiki, obraz real hayotdan olinib, yozuvchining o'y-xayollarida qayta ishlanib, badiiy asarga olib kiriladi. Ammo obraz va obrazlilikdan ham yuqori darajada bo'lgan, obrazlilikni o'z ichida olib yuradigan atama ham mavjuddir. Bu – badiiylikdir. Badiiylik – adabiyotning yuragi deb hisoblasak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki badiiylik adabiy asar ichidagi barcha unsurlarni o'z ichiga oladi. Obraz, xarakter, tip, kompozitsiya, syujet, detal kabi unsurlar birgalikda jam bo'lib, badiiylikni hosil qiladi. Bularsiz badiiylikni, badiiylikni bularsiz tasavvur etib bo'lmaydi. «Badiiylik deganda hayotni jonli va ta'sirli qilib

⁸ Hotam Umurov. Adabiyot nazariyasi.-Toshkent: Sharq nashriyoti, 2002, 28-bet.

qaytadan yaratish san'ati, hayot hodisalari ustidan chiqargan «hukmi», shu «hukm» ruhida tarbiyalash tushuniladi”.⁹ Yuqorida sanab o‘tilgan unsurlardan eng muhim bu – obraz. So‘zimizning isboti o‘laroq, quyidagi fikrga e’tiborimizni qaratamiz: “Obrazlilik badiiylik ichida yashaganidek, obraz obrazlilikning mohiyatini o‘zida tashiydi.”¹⁰ Bundan ko‘rinib turibdiki, badiiy asarning g‘oyasi, yozuvchining mahorati va uning kashfiyotchiligi u yozgan asardagi obraz orqali namoyon bo‘ladi.

Xo‘sh, hayotdagi har kim yoki har narsa obraz bo‘lib kela oladimi? Bu savol tug‘ilishi tabiiy, albatta. “Adabiyotga hayotning hamma (inson, narsa-buyum, hayvon, hodisa, predmet, o‘simplik; ko‘chma ma’no beruvchi so‘zlar, iboralar, leksik resurslar, ifoda vositalari kabi) unsurlari kirar ekan, kirganda ham san’atkor ongi va qalbida jilolanib, boyib, kattalashib, eng muhim insonlashib muhrlanarkan —ularning barchasini obraz deb yuritish qonuniyatdir.”¹¹ Demakki, hayottagi jamiki tirik jon, xoh inson, xoh hayvon bo‘lsin, narsa-buyumlar bo‘lsin obraz bo‘la oladi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan ilmiy ma’lumotlarga tayangan holda ushbu faslda zamonaviy o‘zbek adabiyoti hikoyalarida ot obrazini tahlil va talqin qilishga harakat qilamiz. Zamonaviy adabiyotimiz vakillaridan bir qanchasi o‘zining badiiy asarlarida (hikoya va qissalarida) ot obrazini olib kirishdi hamda xalq dostonlaridagi ot obrazidan farqli o‘laroq bu obrazga yangicha ruh kirgizishda. Yuqori planlarda o‘zgacha qilib gavdalantirishdi. Bunday adiblarimizdan biri, mohir qalam ustasi, buyuk adiblarimizdan biri – Said Ahmad. Adibning bizning mavzuga aloqador “Ot bilan suhbat” hikoyasini tahlilga tortib ko‘ramiz. Badiiy asarni o‘qir ekanmiz ko‘p hollarda yozuvchi yashab, ijod qilgan davr nafasi sezilib turadi. Tahlilga tortmoqchi bo‘lgan hikoyada ijtimoiy davr holati yaqqol ko‘zga tashlanadi. Said Ahmadning asosiy ijod yillari sovet davriga to‘g‘ri keladi. Shu sababli adibning asarlarida sovet davrining alam-iztiroblari, qayg‘u-alamlari,adolatsizliklar adib asarlarida mahorat bilan tasvirlangan. Har bir yozuvchi, ijodkor odam hayotni boshqa rakursdan ko‘radi, boshqacha anglaydi. Eng muhim jihatni hayotni anglashga, u o‘zi nima ekanligini

⁹ Hotam Umurov. Adabiyot nazariyasi.-Toshkent: Sharq nashriyoti, 2002, 28-bet.

¹⁰ Hotam Umurov. Adabiyot nazariyasi.-Toshkent: Sharq nashriyoti, 2002, 28-bet.

¹¹ Hotam Umurov. Adabiyot nazariyasi.-Toshkent: Sharq nashriyoti, 2002, 30-bet.

tushunishga harakat qiladi. Bu qobiliyat faqatgina ijodkorlarga ato qilingandir. Adibning birgina “Ot bilan suhbat” hikoyasi bilan tanishar ekansiz, odamzotning manfur tomonlari har bir o‘quvchini larzaga soladi. Ma’lumki, biz adabiyotni keng ma’noda insonshunoslik deb bilamiz. Adabiyot – inson qalbini, ong-u tafakkurini birgina so‘z orqali junbushga keltiradigan buyuk san’atdir.

“Ot bilan suhbat” hikoyasida keltirilgan ot obrazi haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, insonlarga beminnat yordam qilgan, o‘z ixtiyorini insonlarga topshirgan, oxir-oqibatda insonlar qilmishining qurboni bo‘lgan bir jonivor hayoti va tasviri guvohi bo‘lamiz. Ikkinchi jahon urushi ming-minglab insonlar hayotiga zomin bo‘lmasdan, janglarda egasiga sodiqlik bilan qatnashgan otlarning ham umriga zomin bo‘lgan. Said Ahmadning biografik usulda yozilgan hikoyasining boshlanishidagi parchaga e’tibor qaratamiz: *“Urgutda adir tepasidagi Navro‘z bayrami o‘tkaziladigan yalanglikka chiqadigan tik so‘qmoq yonboshida bir qabr bor. Andak to‘xtab, unga e’tibor bering. Bu jangchi, qahramon otning qabri. U frontda yaralangan egasini olib ketayotgan sanitar vagoni orgasidan yugurib, poezd tezlab ketganda yetolmay, yo‘lda qolib ketgan. Necha oylab tog‘-toshlardan, daryolardan o‘tib, cho llarda sargardon bo‘lib, oxiri Urgutni topib kelgan. Bu vafodor ot egasini ko‘rish ilinjida oylab Samarqand vokzalidagi poezdlarni boshdan-oyoq aylanib chiqadi. O‘ziga tanish sanitar vagonni topolmay, kelgusi poezdni kutadi. Urgut bilan Samarqand oralig‘ida qatnayverib, tuyoqlari yemirilib, yurishga imkon bermay qo‘yadi. U oxiri qadron chavandozga ilhaq bo‘lib jon beradi”*. Bu yerda e’tiborimizni tortadigan bir jihat, egasini topish ilinjida oylab urush maydonidan o‘z yurtiga kelgan otning sadoqatidir. Insonga berilgan vafo, sadoqat, mehr-muhabbat hayvonlarga ham berilgan, aslida. Ammo insonlardagi bu xislatlarning ziddi mavjuddir. Hayvonlardagi bu tuyg‘ularni esa ziddi yo‘qdir. Ular sadoqatni bilishadi, xiyonatni emas, mehr-muhabbatni bilishadi nafratni emas. Bu jarayon esa insonlarni hayvondan faqatgina ong va zabonda ustun ekanligini, vafo va sadoqatda ular ustunligini yaqqol ko‘rsatadi. Yuqoridagi fasllarda jangovor otlar haqida bir qator fikrlarni berib o‘tdik. Tarixda ma’lum bo‘lgan jangovor otlardagi xislatlar hali hamon o‘zgarmagandir.

Hikoya bosh qahramoni Ohangaron ko‘mir koni shaxtalarida 17 yildan beri yashaydigan otdir. Bu ot 17 yil mobaynida shu shaxtada quyoshni ko‘rmasdan, toza havodan nafas olmasdan yashaydi. Otning shaxtaga tushish tarixiga e’tibor qaratsak: “*Bu ot qirq birinchi yili frontga jo ‘natiladi, ikki yil jang qiladi. Yaralangan otlar qatori «brak» qilinib, ko‘mir konlari boshqarmasi ixtiyoriga yuboriladi. Shu tariqa u frontdosh do ‘stlari bilan Ohangaronga kelib qoladi*”. O‘sha davrlarda xalqimiz sovet siyosati qurboni bo‘lganidek, bu narsa, hattoki, urushda bevosita ishtirok etgan otlarni ham chetlab o‘tmagan. To‘g‘ri, insonga rahmi kelmagan siyosatni hayvon nima ishi bor!? Erk – Alloh tomonidan berilgan eng buyuk ne’mat. Inson esa o‘sha erkning kushandasidir. Shaxtaga yangi tushirilgan otlarning yarasi bitib, yaxshi bo‘lgandan keyin, yuk tortishdan bosh tortib, bo‘ysunishmay qolishadi. So‘nga mol do‘xtiri tomonidan bu ot axta(jinsiy ojizlik) qilinadi. Bu tajovuzkorlik ham inson qo‘lidan keladi, albatta. Shu yo‘l bilan otlar yuvosh qilinadi. Insoniyatning bu kabi yovuzligi hikoyada ham ochiq oydin aks etgan: “*O‘z o‘limini sokin, itoat bilan, isyonsiz kutayotgan baxtsiz jonivorga qarab yuraklarim zirqirab ketdi. Qanchalar rahmsiz bo‘lib ketganmiz-a, deyman o‘zimga o‘zim. Dinga qarshi tinimsiz tashviqotlar o‘z ishini qilmayotganmikin? Dilimizdan imon ko‘tarilmayotganmikin? Nahotki, Xudoni unutayozdik? Yo‘qsa, bu shafqatsizlik bizga qaydan ilashadi?*” Bundan ko‘rinib turibdiki, shaxtadagi otlar, eng avvalo, battol siyosat jabrini, so‘nga insoniyatning yovuz qilmishlari qurboni, xolos. Otlar zamonsiz, o‘z dardi ichida, isyon qilishga kuchi yo‘q, o‘limini kutayotgan oddiy bir jonzotga aylangan, to‘g‘rirog‘i aylantirishgan. Shu o‘rinda o‘qirmanga savol tug‘iladi. “Ot ham bir oddiy hayvon, uni bunchalik azoblanishi katta fofia emas” deyishlari mumkin. Bu kabi fikrlar ham to‘g‘ri, albatta. Inkor qilib bo‘lmaydi. Lekin insondagи jon ham, hayvondagi jon ham bir, aslida. Bir jonne boshqa jon azoblashi esa bu yaxshi emas. Qanday davr, qanday sharoit bo‘lishidan qat’iy nazar bu aslo mumkin emas. Bunday qarashlarni, bunday fikrlarni haqiqiy adibgina jamiyatga beroladi. Bunda esa to‘g‘ri obraz tanlay olish esa juda muhimdir.

“*Ot xo‘rsinsa, ko‘zidan yosh oqsa bir falokat yuz beradi, egasi o‘ladi, deyishadi. Xo‘rsingan otni, albatta, so‘yib yuborishadi. 1952 yili shu otning ko‘zidan mo‘lt-mo‘lt yosh oqqandi. Nim qorong‘i shaxtada buni hech kim sezmagandi. O‘sha yili olis Jezqozg‘on konida mis xarsanglarini ko‘chiradigan maxbuslar orasida bir maxbus, sobiq qahramon, otliq askar Ermat chavandoz olamdan o‘tdi. Mis to‘zonlari uning o‘pkasini chiritgan edi. Ermat chavandoz umrini vatan xoini degan «unvon» bilanyakunladi. Ot o‘z chavandozining olamdan o‘tganini sezdimikin? Uning xo‘rsinishi, ko‘zida mo‘ltiragan yosh balki shundandir? U jonvorlik hissiyoti bilan*

fojiani olisdan turib sezgan bo‘lishi mumkin”. Ushbu parchaga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ot bilan bog‘liq maqollar ko‘pligini hamda keng ma’no-mazmunga boy ekanligini guvohi bo‘lamiz. Ot yig‘lashi mumkinmi? Ha, albatta. Chunki ot xosiyatli hayvon. Ko‘p asrlik dunyoni ko‘rgan dono xalqimiz bejizga bu fikrga kelmagan. Chunki xalq og‘zaki ijodida bu kabi motivlar ko‘plab uchraydi.

Endi yozuvchi Said Ahmadning o‘sha ot bilan bo‘lgan xayoliy suhbatini tahlilga tortamiz:

— *E, birodar, ne gunohing bor ediki, seni shu alpozga solishadi? Ot tilga kirgandek bo‘ldi:*

— *Menda qanday gunoh bo‘lsin. Bir bezabon jonivorman. Odamlarning yukini yengil qildim, uzog‘ini yaqin qildim. O‘zimni insonning do‘sti degandim... Hayronman. Olis yurtlarda janglarga kirdim. Odamlar menga o‘q uzdilar. Yaralanib, uzoq yurtlardan vatan deb bilgan manzilga yetib keldim. Mana, ko‘rib turibsan, o‘sha sog‘inib kelgan vatanda oftob ko‘rmay turibman...*

— *Bilaman, bilaman, jonivor. Xalqlar otasi xo‘lu quruqni barobar yondirgan edi. Sendan biron surriyot qolmadimi? — deb so‘rayman undan. U bosh chayqaydi.*

— *Meni bunday baxtdan mosuvo qilganlar.*

Ushbu dialog har qanday kitobxонни etini jimirlatadi, ko‘zlarga yosh keladi. Insoniyatni faqat salbiy jihatlarini ko‘raverish adolatsizlik bo‘ladi. Odamlarning dunyoga qilgan yaxshiliqi bisyor. Lekin ular yovuzliklar, xudbinliklar haqiqiy inson degan nomga loyiqlar uchun aqlga sig‘dirib bo‘lmas darajada yomondir. Alloh har bir tirik jonga nasl qoldirish imkoniyatini ato qilgandir. Biroq insoniyat bu imkoniyatni ham cheklaydi va bunga o‘zini haqli deya hisoblaydi. “*Shunday paytlarda doxiy «padari buzrukvorimizga» qarata: «Zulmingni, jabringni tortmagan kim qoldi? Odamlarga qilgan zulming kammidi, jonivorlarni ham baxti qora qilding-ku!» degan bir nido ich-ichimdan otilib chiqadi*”.

Tahlil so‘ngida shuni ayta olamizki, ushbu hikoyada insonlarning yovuzliklari bиргина ot boshiga tushgan qaro kunlar orqali yoritilgan. Bu yerda ot obrazi asosiy

planda kelishi esa juda o‘rinlidir. Chunki otdagi sadoqat, undagi vafodorlik boshqa hayvonlarda uchramaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hotam Umurov. Adabiyot nazariyasi.-Toshkent: Sharq nashriyoti, 2002
2. Dilmurod Quronov. ADABIYOT NAZARIYASI ASOSLARI. – Toshkent “Navoiy universiteti”.2018.
3. Abdumurod Tilavov. Ot obrazi: tarix, tahlil va talqin. – Toshkent: “Sanostandart”, 2021. – 160 b.
4. Said Ahmad. Yo‘qotganlarim va topganlarim. – Toshkent: “Sharq”, 2000.